



2021- yil yanvar-fevral oylarida Andijon viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-fevral oyida Andijon viloyatida jami **572,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan **102,2** % ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-fevral oyida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.




Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-fevral oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **17,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan o'sish surati **71,3 %** ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,09 %** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Andijon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **35,2 %** i yoki 2020- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan **97,9 %**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2020- yil yanvar-fevral
- 2021- yil yanvar-fevral


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-fevral oyida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **78,65 %** i to'g'ri kelib, 2020- yil yanvar-fevral oyi ko'rsatkichiga nisbatan **0,69 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil mos davriga nisbatan **104,2 %** ni tashkil etgan holda **450,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **18,26 %** ni tashkil etdi yoki **104,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan **100,9 %** ni tashkil etdi.*



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **24,7** mlrd. so'm yoki 2020- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan **80,1** % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **548,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **406,3** % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da




**Hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari
2021- yil yanvar-fevral oyida**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Viloyat bo'yicha:	572,8	24,7	4,3	548,1	95,7
Andijon sh.	201,9	3,8	1,9	198,1	98,1
Xonobod sh.	17,9	0,0	0,0	17,9	100,0
tumanlar :					
Oltinko'l	30,8	0,0	0,0	30,8	100,0
Andijon	78,1	7,3	9,3	70,8	90,7
Baliqchi	10,8	1,0	9,5	9,8	90,5
Bo'ston	22,6	0,0	0,0	22,6	100,0
Buloqboshi	9,5	1,4	14,7	8,1	85,3
Jalaquduq	23,3	1,3	5,8	22,0	94,2
Izboskan	17,5	1,4	8,0	16,1	92,0
Ulug`nor	8,0	1,4	17,2	6,6	82,8
Qo`rg`ontepa	17,4	1,4	8,0	16,0	92,0
Asaka	20,8	1,3	6,4	19,5	93,6
Marxamat	27,4	1,2	4,2	26,2	95,8
Shaxrixon	45,9	1,4	3,1	44,5	96,9
Paxtaobod	22,8	0,6	2,7	22,2	97,3
Xo`jaobod	18,0	1,1	6,3	16,9	93,7

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari, % da

2020- yil yanvar-fevral

19,4

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

10,6

Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

70,0

Bino va inshootlarni
qurilishi

2021- yil yanvar-fevral

13,5

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

13,2

Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

73,3

Bino va inshootlarni
qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **3,1 %** ni tashkil etib, 2020- yil yanvar–fevral oyi ko'rsatkichiga nisbatan **3,1 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning-fevral yanvar oyi ko'rsatkichiga nisbatan **1,4 %** punktga ko'payib, **78,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yil yanvar - fevral oyi ko'rsatkichiga nisbatan **1,7 %** punktga kamayib, **18,2 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **3,0 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan **7,2 %** punktga ka'maydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **78,7 %** (**10,9 %** punktga ka'maydi).

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yil yanvar-fevral oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **18,1 %** punktga ko'paydi, **18,3 %** ni tashkil etdi.







Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan **9,8 %** punktga ka'maydi va **3,0 %** ni tashkil etdi. Qolgan **78,8 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan **8,4 %** punktga ka'maydi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yil yanvar-fevral oyi ko'rsatkichiga nisbatan **18,2 %** punktga ko'paydi, **18,2 %** ni tashkil etdi.





**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-fevral oyida**





Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: S.Hadjaev

Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37